O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 60230100-2.03
2021-yil “___”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021-yil “___”_____

G‘AZAL POETIKASI

(Tanlov fanidan)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek tili)

SAMARQAND - 2021

Fan dasturi "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrasining 2021-yil 25 - may dagi 9 -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. I. Sulaymonov**

Fan dasturi Filologiya fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26 - may dagi 8 -sonli bayonnoma).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi **prof. A.Pardayev**

Fakultet uslubiy kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

"Kelishildi"

SamDU o'quv ishlari

bo'yicha prorektor: **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
G’PT4006	2024-2025	7	6

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Tanlov	O‘zbek	4

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
1.	G’azal poetikasi	105	75	180

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – "G’azal poetikasi" fanining asosiy maqsadi talaba yoshlarni madaniy va ma`naviy ildizlardan bahramand etishga qaratilgan. Adabiy namunalarni o`rgatish, o`zlashtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkur ko`lamini yuksaltirish, badiiy so`z qudratini his qilish va his qildira olish qobiliyatini shakllantirish, yuksak axloq va did egalarini tarbiyalash nazarda tutilgan.

Fanning vazifalari:

- talabalarning g’azal janri tarixi va badiiyati haqida to’laqonli ma’lumotga ega bo’lishlarini ta’minlash hamda bu ma’lumotlardan foydalanish ko’nikmasini shakllantirish;
- badiiy asar mohiyati, unda shakl va mazmun mutanosibligini chuqur anglash ko`nikmasini hosil qilish;
- g’azal janrining nodir namunalari va ularning adabiy jarayondagi holati bilan yaqindan tanishtirish;
- mavjud matnlarni ijtimoiy-estetik hodisa sifatida tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish malakasini shakllantirish;
- talabada estetik didni, badiiy so`zni his etish ko`nikmasini hosil qilish;
- egallangan bilim va malakani ta’lim tizimini rivojlantirish yo`lida amaliyotga tadbiq etish.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-bo’lim:

G’AZAL JANRINING SHAKLLANISH VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI.

G’azal va uning mumtoz poetika manbalaridagi talqinlari. “G’azal poetikasi” fanining predmeti, manbalari, maqsad va vazifalari, o’rganilish ahamiyati, malaka talablari, tarkibi. “G’azal” – atama sifatida, uning arab va fors-tojik adabiyotidagi ildizlari, shakllanishi haqida qarashlar. Mumtoz poetika manbalarida g’azal janri talqinlari. Ilk g’azalnavis shoirlar.

IX-XI asrlar fors-tojik she'riyatida g'azal janri taraqqiyoti. Abu Abdulloh Ro'dakiy she'riyati, Ro'dakiy va uning asrdoshlari ijodida g'azal janrining tashakkuli va taraqqiyoti. Ilk g'azallarning mavzu mundarijasi, badiiyati.

Sa'diy Sheroziy va g'azal janri taraqqiyoti. Sa'diy Sheroziy adabiy me'rosi va unda g'azal janrining mavqei. Sa'diy g'azaliyoti haqida adabiy-tanqidiy qarashlar. Sa'diy g'azaliyotining mavzu-mundarijasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Sa'diy g'azaliyoti uslubi. Sa'diy g'azaliyoti an'analari.

Turkiy she'riyatda g'azal janri tashakkuli va taraqqiyoti. Turkiy she'riyatda ilk g'azallar: Ahmad Yassaviy hikmatlari tarkibida g'azal namunalari, Rabg'o'ziyning "Qissasul anbiyo" asari tarkibida g'azallar. Sayfi Saroyi va uning zamondoshlari ijodida g'azal janri. Sayfi Saroyi g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

XIV – XV asrlar turkiy adabiyotda g'azal janri taraqqiyoti. Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy va Lutfiylar ijodida g'azal janrining o'ziga xos jihatlari, mushtarak va farqli tomonlari, badiiy xususiyatlari

Alisher Navoiy – g'azal mulkining sultoni. Navoiyning g'azalchilikdagi ustozlari. Navoiy g'azaliyotining salmog'i, mavzu va kompozitsion rang-barangligi. Navoiyning g'azalchilikdagi uslubi haqida qarashlar. Navoiyning g'azalchilikdagi kashfiyotlari.

XVI-XIX asrlarda g'azal janri taraqqiyoti. XVI-XIX asrlar she'riyatida Alisher Navoiy an'analari. Fuzuliy g'azaliyoti va uning o'zbek adabiyotidagi an'anali. Qo'qon va Xiva adabiy muhitlarida g'azal janri taraqqiyoti. So'fiyona g'azaliyot va uning taraqqiyotida Mashrab she'riyatining o'rni.

G'azalchilikda "hind uslubi" ("sabki hindi") va uning o'ziga xos qirralari. G'azalchilikda xuroson, iroq va hind uslublari haqida adabiy-tanqidiy qarashlar. Abulmaoniy Abdulqodir Bedil ijodida g'azal janri taraqqiyoti. Bedil g'azallarining uslubi. Zebuniso g'azaliyoti.

Zamonaviy she'riyatda g'azal janri. XX asr o'zbek she'riyatida g'azal janri. XX asr g'azaliyotida mavzu, mazmun va poetik evrilishlar. Erkin Vohidov she'riyati va zamonaviy g'azallar taraqqiyoti. XX asr she'riyatida an'anaviy mumtoz g'azallar.

2-bo'lim:
G'AZAL POETIKASI

Ko'pmavzuli g'azallar poetikasi

Yakpora g'azallar poetikasi.

Musalsal g'azallar poetikasi.

Voqeaband g'azallar poetikasi.

Matla' poetikasi.

Musajja' g'azallar poetikasi.

Tatabbu' g'azallar.

Mumtoz g'azaliyotda tazmin usuli.
Sinkretik janrlar tizimida g'azallarning o'rni.

3-bo'lim:
G'AZAL TAHLILI

Gazal tahlili tarixi va an'analari.
Hamd g'azallar tahlili.
Na't g'azallar tahlili.
Orifona g'azallar tahlili.
Oshiqona g'azallar tahlili.
"Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi ilk g'azal talqinlari.
"Qaro ko'zum..." g'azali talqinlari.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. She'riy matnlarni tahlil qilish usullari
2. O'tmish adabiy majlislarida g'azal tahliliga doir tajribalar
3. Yangi davr adabiyotshunosligida g'azal tahlili va talqin muammolari
4. Navoiy va keyingi davr g'azallarini "Badoye' ul-bidoya" debocasidagi mezonlar orqali o'rganish
5. G'azallarda vazn variatsiyalari.
6. G'azallarda mumtoz qofiya va radif
7. G'azallar poetikasida badiiy san'atlarning o'rni
8. G'azallardagi shohbatlar badiiyati
9. Yangi davr g'azallarida mumtoz adabiyot mezonlarining aks etishi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Давлатов О. Маънолар хазинаси (Алишер Навоий газалларига шарҳлар). 1-4 китоблар. (– T.: Tamaddun, 2021) asarini o'qib konspektlashtirish.
2. Yo.Is'hoqovninig "Navoiy poetikasi" (T.: Fan, 1983) asaridan g'azal poetikasiga doir ma'lumotlarni o'qib konspektlashtirish.
3. A.Hojiahmedovning "Navoiy aruzi nafosati" kitobidan "Navoiygacha bo'lgan o'zbek aruzi", "Navoiy dostonlarining ohanglar olami" fasllarini konspektlashtirish, kitobi so'ngidagi ilovalar asosida Navoiy she'riyatida eng ko'p uchraydigan yigirmata vaznni aniqlash.

	4. Alisher Navoiyning tanlangan g'azallarini to'liq taqte' va tahlil qilish (vazn, qofiya, badiiy san'atlar). 5. Alisher Navoiy g'azallaridan kamida 100 ta shohbayt aniqlash va yod olish. 6. G'azallardagi tushunarsiz so'zlar lug'atini tuzish.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Mumtoz she'riyat poetikasining tarixiy taraqqiyoti, yutuq va kamchiliklari, istiqboli haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Mumtoz she'riy asarlarning g'oyaviy olami, mazmun-mohiyati va badiiy barkamolligini anglash va shu haqda mulohaza yuritish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • Mumtoz she'riy asarlarning bugungi va ertangi kun uchun ahamiyatini bilish ba o'rgatish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • audio va videoma'ruzalar; • taqdimot; • matn ustida ishlash.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Орзибеков Р. Ўзбек классик лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. -Т., Фан, 1976. 2. Salohiy D. Navoiyshunoslik: Alisher Navoiy g'azallarini sharhlab o'qitish. – S.: SamDU, 2019. 3. Исҳоков Ё. Сўз санъати сўзлиги -Т.: O'zbekiston, 2014. 4. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: Tamaddun, 2012. 5. Давлатов О. Маънолар хазинаси (Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар). 1-4 китоблар. – Т.: Tamaddun, 2021. 6. Навоий ғазаллари талқинлари (нашрга тайёрловчи Н.Жумахўжа). – Т. O'zbekiston, 2018.

	I. Qo'shimcha adabiyotlar 7. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - 427 б. 8. Orzibekov R. O`zbek lirik she'riyati janrlari. -T., Fan, 2006. -354 b. 9. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006. 10. Tohirov S. Aruz vazni qoidalari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2019. 148 bet. 11. Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002 й., 1-6 сонлар; 2003 й., 1-6 сонлар. 12. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 1-6 томлар. – Т.: Фан, 1987-1991. 13. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 19-20 томлар. – Т.: Фан, 2001-2003. 14. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 1-4-жилдлар. – Т.: F.Fулом, 2011. **Internet va ZiyoNet saytlari** www.literature.uz.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2021-yil __-_____dagi __-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ul(lar)**: S.Q.Tohirov – SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti filologiya fanlari nomzodi, dotsent. A.Razzoqov – SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha Falsafa doktori (PhD).
9.	**Taqrizchilar:** I.Sulaymonov – SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti filologiya fanlari doktori (DcS). (ichki) S.Yo'ldosheva – Sam VXTXMO va QTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. (tashqi)